

SHARTNOMA № 1

(Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi maxsulotlari yetkazib berish to'g'risida).

"24" yanvar 2022 yil.

Kitob tumani

Biz, "SA'DIABONU" xususiy korxonasi nomidan raxbar N. Karimova (keyingi o'rinlarda "SOTUVCHI" deb yuritiladi) bir tomondan va Viloyat №2 Asab-Ruxiy kasalliklari dispanseri nomidan rahbar X. AZIZOV. (keyingi o'rinlarda «XARIDOR» deb yuritiladi) ikkinchi tomon bo'lib, shartnomani oziq-ovqat va qishloq xo'jalik maxsulotlarini yetkazib berish to'g'risida tuzdik.

1. UMUMIY QOIDALAR.

1.1 Ushbu shartnoma asosida tomonlar o'rtasida shartnoma imzolangan kundan boshlab "31" yanvar 2022 yil gacha muddatga oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi maxsulotlari yetkazib berish to'g'risida xo'jalik aloqasi o'rnatiladi.

1.2 Mazkur shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki muddatidan oldin bekor qilish tomon larning yozma ravishdagi kelishuvlariga muvofiq amalga oshiriladi.

1.3 "Xaridor" ning buyurtmasiga asosan mazkur shartnoma bo'yicha "Sotuvchi" 18300000 (O'n sakkiz million uch yuz ming sum) sumlik oziq-ovqat va qishloq xo'jalik mahsulotlarini amaldagi xo'jalik qonunchiligi talablari asosida yetkazib berishni "Xaridor" esa yetkazib berilayotgan oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun o'z vaqtida xaq to'lash majburiyatini oladi.

2. SHARTNOMANING PREDMETI, MIQDORI VA SUMMASI.

2.1 "Xaridor" tomonidan buyurtma qilinadigan oziq-ovqat va qishloq xo'jalik mahsulotlarining turi, sifati, miqdori va yetkazib berish muddatlari tomonlar o'rtasida o'zaro kelishiladi va quyidagilarni yetkazib beradi.

t/r	Maxsulot nomi	O'lchov birligi	Soni	Narxi sum	Summasi sum xisobida
1	Mol go'shti (maxalliy)	kg	300	61000	18300000
	JAMI:				18300000

3. OZIQ-OVQAT, QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINING NARXI VA HISOBLASH TARTIBI.

3.1 Oziq-ovqat, qishloq xo'jalik mahsulotlarining narxi o'rtacha bozor narxlariga va O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan berilgan tavsiyaviy narxlardan oshmagan xolda shartnomada ko'rsatilgan summalarda amalga oshiriladi.

3.2 Oziq-ovqat, qishloq xo'jalik mahsulotlarini narxi o'zgartirish tomonlar o'rtasida shartnomaga qo'shimcha o'zgartirishlar kiritiladi.

3.3 Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016 yil 22 dekabrda №2850-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi qoidalariga" asosan byudjet tashkilotlarini tovar (ish, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalari majburiy tarzda G'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tkazilib, yetkazib berilayotgan oziq-ovqat, qishloq xo'jalik mahsulotlari xaqini shartnoma imzolanganidan so'ng oldindan 30 foiz (5490000sum) to'lov amalga oshiriladi va qolgan 70 foiz (12810000sum) i tovar (ishlar, xizmatlar) lar to'liq olingandan so'ng tegishli xisob-fakturalarga asosan to'lovlari amalga oshiriladi.

4. OZIQ-OVQAT, QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTINING SIFATI.

4.1 "Sotuvchi" yetkazib berilayotgan oziq-ovqat, qishloq xo'jalik mahsulotlarini sifatiga kafolat beradi mahsulot sifati GOST, davlat standartlari va texnik shartlariga mos ravishda, muvofiq sertifikatlari bilan berilishini ta'minlashi shart.

4.2 Sifatsiz mahsulot aniqlangan kundan boshlab 3 kun ichida mahsulot yetkazib beruvchi tomonidan sifatsiz mahsulot sifatligi bilan almashtirib berilishi lozim. Tomonlar iste'mol zarurati bo'yicha shartnomada ko'zda tutilgan ayrim turdagi mahsulotlarni xarakatdagi sanpin talablari asosida kaloriyasi teng boshqa turdagi mahsulotlar bilan almashtirilib shartnomaga qo'shimcha kelishuv tuzish mumkinligiga kelishadilar.

4.3 "Xaridor" ning vakili oziq-ovqat, qishloq xo'jalik mahsulotlarini miqdori va sifati bo'yicha Sotuvchining omboridan ko'rib qabul qilib olish bilan oziq-ovqat, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qabul qilib olish muddati tugallangan hisoblanadi.

5. OZIQ-OVQAT, QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTINING YETKAZIB BERISH TARTIBI.

5.1 Oziq-ovqat va qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetkazib berish, "Xaridor" tomonidan xar oylik taqdim etilgan buyurtma asosida amalga oshiriladi.

5.2 "Xaridor" oziq-ovqat, qishloq xo'jalik mahsulotlarini "Sotuvchi" ning omborxonasidan miqdori, soni va sifati bo'yicha qabul qilib o'z transportida olib ketishini, transport xarajatlarini o'z hisobidan amalga oshirishini, transportni sanitariya xolatiga rioya qilish va texnik talablariga javob beradigan xolda bo'lishini ta'minlash majburiyatini oladi.

5.3 "Sotuvchi" un mahsulotini "Xaridor" ni omborigacha o'z transportida yetkazib beradi.

5.4 "Sotuvchi" oziq-ovqat, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetkazib berishni o'z vaqtida amalga oshir maganida, yetkazilmagan mahsulotlarni ushbu xolat aniqlangan kundan boshlab 3 kun ichida "Xaridor" ga yetkazib beradi.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.

6.1 Tomonlar ushbu shartnoma shartlarini qisman yoki to'liq bajarmaganliklari uchun javobgar xisoblanadilar. "Sotuvchi" shartnomada ko'rsatilgan mahsulotni to'liq bermasa yoki berishdan bosh tortsa xar bir kechiktirilgan kun uchun 0,5% miqdorida penya to'laydi (lekin penya miqdori olingan mahsulotlarning umumiy qiymatini 50% dan oshmasligi lozim). Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni tovar (mahsulot, ish, xizmat) larni yetkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborish, to'liq yetkazib bermaslik, ishlarni bajarmaslik yoki xizmatlarni ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi. Agar shartnoma shartlarini bajarmaganliklari uchun 20% jarima to'laydi va shu bilan birga "Xaridor" mahsulotlarning uchinchi shaxslarga ulgurji yoki chakana narxlarda sotish xuquqiga ega emas.

6.2 "Xaridor" olingan mahsulotning qiymati shartnomada kelishilgan muddatda to'lanmasa to'lov dan bosh tortsa, bosh tortilgan summaning 15% miqdorida jarima va xar kechiktirilgan kun uchun 0,4% miqdorida penya to'laydi. Penyaning umumiy miqdori 50% oshmaslik kerak.

6.3. "Xaridor" shartnomada ko'rsatilgan mahsulotni belgilangan muddatda olmasa, olishdan bosh tortsa, olinmagan mahsulot qiymatidan 5% (tez buziladigan tovarlar uchun 10% miqdorida) jarima to'laydi. Bunday xolat "Sotuvchi"ga mahsulotni o'z xoxishi bo'yicha boshqa oluvchiga sotish xuquqini beradi.

7. SHARTNOMA BO'YICHA KELISHMOVCHILIKLARNI XAL ETISH TARTIBI.

7.1. Tomonlarning kelishuvi bilan xal qilib bo'lmaydigan nizolar qonun xujjatlarida belgilangan tartibda Qashqadaryo viloyat xo'jalik sudi orqali xal etiladi.

7.2. Tomonlar mazkur shartnoma bo'yicha kelib chiqadigan barcha xolatlarda yuzasidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik xujjatlari asosida o'zaro javobgardirlar.

8. FORS-MAJOR.

8.1. Xech bir tomon ikkinchi tomon oldida o'ziga bogliq bo'lmagan sabablarga ko'ra va yengib bo'lmas kuch mavjud bo'lgan taqdirda ushbu shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydi.

9. BOSHQA SHARTLAR.

9.1. Ushbu shartnoma ikki tomonlama imzolaniib, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016 yil 22 dekabrda №2850-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining g'azna ijrosi qoidali" to'g'risidagi yo'riqnomaga asosan G'aznachilik bo'linmasidan ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab kuchga kiritilib 2022 yil 31 dekabrgacha amalda bo'ladi.

9.2. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan boshqa xolatlarda tomonlar O'zbekiston Respublikasi-ning "Fuqarolik kodeksi" va O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida"gi qonunlariga amal qiladi.

9.3. Ushbu shartnoma ikkala tomonga bir xil kuchga ega bulib, ikki nusxada tuzilgan.

10. TOMONLARNING XUQUQIY MANZILI VA REKVIZITLARI

«S O T U V Ch I»

"SA'DIABONU" XK

Manzil: Kitob sh. Furqat ko'chasi

x/r: 2020 8000 8053 8488 1001

Kitob Agrobank

MFO: 00176

STIR: 308 458 998

Raxbar:  M.U. (imzo) N.KARIMOVA.

«X A R I D O R»

Viloyat №2 Asab-Ruxiy kasalliklari dis-ri

Manzil: Kitob sh. Tolzor kuchi Tel: 54-26-843

sh.x.r: 1000 2186 0102 3270 7320 1054 002

STIR : 201 841 166 OKONX: 91513 IFUT:86220

O'zbekiston Res. Moliya Vazirligi G'aznachiligi

Markaziybank Toshkent shahar. B.B.X.K.K.M.

x/r: 2340 2000 3001 0000 1010

MFO:00014 STIR: 201 122 919

Rahbar:  X.AZIZOV.


M.U. (imzo)

Men "Sardor Said yurist" Advokatlik byurosi advokati Muxammadiev Said Qoraevich (litsenziya №KS-0052 28.12.2018y) mazkur shartnoma loyixasini O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi moddalari xamda O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagi 670-I sonli "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida" gi Qonuni asosida belgilanganligini

Yuqoridagilarga asoslangan xolda

doirasida tuzilgan deb xisoblayman va tomonlarga uni imzolashni tavsiya etaman.

Xuquqshunos:

 S.Muxammadiev.

Aniqladim:

"29" yanvar 2022 yil.

1 sonli shartnoma loyixasini qonun

"24" yanvar 2022 yil.

